

Biz Zulfiyaxonim nabiralarimiz

Maktabning tadbir o'tkaziladigan katta zali sharlar va gullar bilan bezatilgan. Sahnada Zulfiyaxonim portreti. She'rlari tushirilgan rangli bukletlar. Iqtidorli o'quvchilar tomonidan tasvirlangan rasmlari.

Musiqasadorlari ostida qo'llarida sharlar bilan 4- sinf o'quvchilari sahnaga chiqadilar.

Gulmiraxon:— Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, mehribon ustozlar! Zulfiyaxonim izdoshlari bo'lgan qizlar va bilimdon bolajonlar! O'zbekiston xalq shoirasi, taniqli jamoat va davlat arbobi Zulfiyaxonim Isroilova tavalludining 100 yillik qutlug' sanasi munosabati bilan tashkil etilgan tadbirimizga xush kelibsiz! O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2014- yil 31-oktabrdagi “Zulfiyaxonim tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, biz 4- sinf o'quvchilari bayram tadbiri tayyorladik.

Elveraxon:-Zulfiya Isroilova xalqimizning atoqli farzandi, O'zbekiston xalq shoirasi, “Nilufar” va Javoharl'al Neru nomidagi xalqaro mukofotlar sohibasidir.

Zamiraxon:- Zulfiyaxonim 1915- yili 1-martda Toshkent shahrining qadimiy Degrez mahallasida tug'ilgan.

Gulhayoy:-Zulfiyaxonimning bolalik yillari doshqozon atrofida bezovta yurgan otasining ortidan ergashib, “Dada, menga qo'g'irchoq yasab bering!” deb iltimos qilardi.

Zaynabxon:- Zulfiyaxonimning onasi Xadicha aya ko'pgina qo'shiq va afsonalarni, doston va ertaklarni bilardi.

Asadbek:-Zulfiyaxonim 1996-yil 1-avgustda 81 yoshida bu hayotni tark etdi.

Gulmiraxon: Umr uzun karvon, yelkada yuki,

Goh xira, goh yorug', tonglardan o'tar.

Shu karvon yo'lida, bir azim daraxt

Baland shoxlari chirmashib o'sar.

Iqboloy:-Zulfiyaxonim uchun Hamid Olimjon do'st, ijodiy izlanishlarida eng yaxshi ko`makchi bo'lgan.

Normatjon:-Buyuk shoir Hamid Olimjon Zulfiyaga hamma narsada o'rnak bo'ldi.

Dinaraxon: Zulfiya ko'nglini Hamidga soldi.

Go'zal hayot zavqin diliga soldi.

Lek shodligi cho'zilmay yiroq,

O'lamini qopladi, ayriliq, firoq.

Shodiyorbek:-Hamid Olimjon 1944-yil 3-iyulda yo'l-transport hodisasi oqibatida Zulfiyaxonim va bu olamni tark etadi.

Sahna lolaqizg 'aldoqlar maketi bilan bezatiladi.

Shabnamoy: Ona turgan xonaga,

Qizi kirdi, yugurib.

Go'yo sig'may olamga,

Dedi, shoshib-ko'pirib.

Shodiyabegim: Oyijonim, tez yuring!

Ko'rsataman qiziq gul,

Hurriyatning tomini,

Lola qoplabdi butkul.

Zulayxooy: Bilmayman, jonim qizim,

Onasidan so'ranglar.

Ruxsat bersa, chiqing-u,

Ko'zingizga qaranglar.

Gulmiraxon:-Zulfiyaxonim farzandlari Hulkar va Omonga, nabirasi

Ulug'beklara bag'ishlab ham she'rlar yozgan.

Nilufarxon: Hulkar degan qizchaman.

Gul ichida o'saman.

Ko'kda uchsa kapalak,

Yo'llarini to'saman...

Charosxon: Ukam bor edi Omon,
Jonlari jonimga jon.
Yurt bo'lsin omon-omon,
Yayraganimda...

Farruxjon: Nevaram quyunday otilib kirib,
Qalamim tagidan qog'ozni yular.
Damda varrak yasab,
Ko`kka uchirib,

Izidan qop-qora ko`zlari yurar...

Gulmiraxon:-Zulfiyaxonim tabiat kuychisi, tong kuychisi.

Munisaxon: Men erkin Vatanda qushdayin ozod,
Emin-erkin o`sdim, undim, gulladim.
Shu hayotda cheksiz quvnoqman, ham shod,
Butun borlig'imni shunga yo`lladim.

Irodaxon: Havo ko`m-ko`k, unda yo`q beg'ubor,
Quyosh nurin behad sochadi.
Yerda ajib to`lishib bahor,
Har kun yangi chehra ochadi.

Zilolaxon: Yomg'ir, sen tabiat sahiy farzandi,
Menga ko`rsat yo`l.
San'ating sevadi yer-u ko`k gardin,
Ezguliging mo`l.

Hilolaxon: Mehnat bergan oltin shodlikday,
Otilib toshadi shalola.
Shovqini ilhomdan yorliqday,
Yurakda ko`tarar tarona.

Gulmiraxon:-Ona! Ona muqaddas va buyuk zot. U bir qo`li bilan beshikni, ikkinchi qo`li bilan dunyoni tebratadi. Ona qalbi-insoniyat qalbi. Uning hayajonli tuyg'ularida buyuk ishonch bor. Zulfiyaxonim ona, sadoqatli ayol

siymosini madh etib, ko`plab she'rlar | yozgan.

Zaynabxon: Onam, mening mushfiq, mehribon onam,

Qalbmida ovozing, o`zing qayerda!?

Quyosh og'ushiga solganmi olam,

Shu'laday odiming qaysi asrda?

Asadbek: Kim tanimas bizning onalarni?

Siz qayda sezmaysiz issiq nafasini?

O`lchab bo`larmikin ona mehrini,

Tugatib bo`larmi aytib qissasini?

Gulmiraxon:-Shoira Zulfiya Oybek, G`afur G`ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir kabi shoirlar bilan mushoiralar o`tkazar edi. Oybek, G`afur G`ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemirning she'rlarini tinglab, ko`ngli zavq-shavqqa to`lardi. Oybek, G`afur G`ulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir Zulfiyaxonim haqida ta'rif bitganlar.

Elveraxon: G'afur G'ulom “**Zulfiyabegimga**” she'ri

Umlarcha davom etsin,

Vatan ufqida parvozing,

Zamon aksi sadosidek,

jaranglab tursin ovozing.

Asrlarning nidosi yangragan

har parda satringkim,

Hayotiy shoshmaqomlardir

yurak zarbiga teng sozing.

Zamiraxon: Erkin Vohidov “**Vafo**” she'ri

Meni barhayotsan,

Deding, shoiram.

Yorug' dunyodagi,

Hayotim o'zing...

Gulhayooy: Hamid G'ulom “**Ittijo**” she'ri

Shahar markazida ko'rkam bir uy bor,

To'rt tomon xiyobon, gullar doira.

Bu yerda yashashni etmish ixtiyor,

Ardoqli bir inson, buyuk shoir.

Normatjon: Gulchehra Jo'rayeva “**Eng yaqin yulduz**” she'ri

Eng yuksak, eng yorqin, eng yaqin yulduz,

Ko'kning zuhrosi-yu, she'r Zulfiyasi.

Ikkingiz egizak bir yolqinli so'z,

Mangulikning sevgan juft madhiyasi.

Gulmiraxon:-1999-yil 10- iyulda Prezidentimiz tomonidan “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofoti ta'sis etilishi o'zbek ayoli uchun ko'rsatilgan katta ehtiromdir. Dunyoda yagona bo'lgan bu mukofot yurtimizdagi iste'dodli qizlarimizning adabiyot, san'at, fan, madaniyat va ta'lim sohasida erishgan muvaffaqiyatlari uchun berilmoqda. Zulfiyaxonim izdoshlari yurtimiz nomini ulug'lab kelmoqdalar.

Gulmiraxon:-Zulfiyaxonim o`z she'rlari bilan barchamizni hayotni, go'zallikni, tiriklikni, istiqbolni ulug'lab yashashga da'vat etadi.

Barchangizga eng yaxshi tilaklar hamroh bo'lsin!

G.A.Isoqova

Jizzax viloyat xalq ta`limi xodimlarini

qayta tayyorlash va malakasini

oshirish instituti katta o`qituvchisi

Mavzu: Bo'rining tabib bo'lganligi haqida ertak

Darsning maqsadlari:

ta'limiy: o'quvchilarni ertak mazmuni bilan tanishtirish, ifodali o'qish malakalarini takomillashtirish; ertakka oid topshiriqlar bilan ishlashga o'rgatish;

tarbiyaviy: rostgo'ylik, samimiylilik va har qanday hollarda ham to'g'ri gapirish kabi fazilatlarini tarbiyalash;

rivojlantiruvchi: o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish, mantiqiy fikrlash malakalarini rivojlantirish hamda lug'at ustida ishlash.

Dars turi: yangi bilim beruvchi.

Metodi: suhbat, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash.

Jihozi: darslik, videolavhalar, mavzuga doir rasmlar.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

Salomlashish, o'quvchilarning darsga tayyorlash.

II. Uy vazifasini so'rab, takrorlash, mustahkamlash.

Mavzuga oid savol-javoblar orqali uyga berilgan vazifani so'rash. Uy vazifasini yaxshi bajarib kelgan o'quvchilarning rag'batlantiriladi.

III. Yangi mavzu bayoni.

O'qituvchi:- Bolajonlar, ertaklar 2 turga bo'linadi. Xalq ertaklari, adabiy ertaklar. Bugun biz “Bo'rining tabib bo'lganligi haqida ertak” asarni o'rganamiz. U adabiy ertak bo'lib, muallifi bolajonlarning sevimli adibi Anvar Obidjonidir. Anvar Obidjon haqida nimalar bilasiz?

O'quvchilar Anvar Obidjon haqida bilganlarini so'zlab beradilar. O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini tinglab, yangi ma'lumotlar bilan to'ldiradi.

O'qituvchi:- O'zbekiston xalq shoiri Anvar Obidjon 1947-yili 8-yanvarda Farg'ona viloyati Oltiariq tumanidagi Poloson qishlog'ida tug'ilgan. Anvar Obidjon tomonidan bolalarga atab yozgan she'r va ertaklarini o'quvchilar qiziqish bilan o'qib kelinmoqda. Anvar Obidjonning “Qo'ng'iroqli yolg'onchi”, “Pahlavonning o'g'irlanishi” pesalari sahnalashtirilgan va bolalar tomonidan bu pesalar qiziqish

bilan qabul qilingan.

O'quvchilar "Bo'rining tabib bo'lganligi haqida ertak" asarini ifodali o'qiydilar. O'qib chiqishlari uchun vaqt belgilanadi. Belgilangan vaqt tugagach o'quvchilar "Bo'rining tabib bo'lganligi haqida ertak" asarini o'zaro muhokama qilishadi. O'qituvchi o'quvchilar bilan "Bo'rining tabib bo'lganligi haqida ertak" asari yuzasidan savol-javob o'tkazadi. Shundan so'ng "Bo'rining tabib bo'lganligi haqida ertak" asarini rollarga kirib o'qib berishlarini taklif qiladi.

O'qituvchi: Bolajonlar sizlarga "Bo'rining tabib bo'lganligi haqida ertak" asaridagi qaysi so'zlar ma'nosi tushunarli bo'lmadi?

O'quvchilar "Bo'rining tabib bo'lganligi haqida ertak" asaridagi ma'nosi noma'lum so'zlarni aytishadi.

O'qituvchi o'quvchilarga ma'nosi noma'lum so'zlar ma'nosini tushuntiradi.

Lug'at ustida ishlash:

tul kampir-beva kampir;
muttaham-aldoqchi, shum;
dil xushlam-xursand bo'lib;
darg'azab-g'azabnok, g'azabli;
ozor-tashvish;
quwatdori-quwat beruvchi dori;
xapdori-suv bilan ichiladigan dori.

O'qituvchi:-Endi pazl usulida uch guruhga bo'linamiz. Bunda o'quvchilarga bo'laklarga bo'lingan rasmlar beriladi. O'quvchilar rasmlarini birlashtirib, dastlabki holatiga keltirishadi. "Bo'rining tabib bo'lganligi haqida ertak" asarini qismlarga ajratgan holda o'rganamiz.

1-guruh:-"A'lochilar";

2-guruh:-"Ilg'orlar";

3-guruh:-"Bilag'onlar".

1-topshiriq.

Guruhingiz uchun ajratilgan parchani ifodali o'qing. Har bir guruhdan 2 nafardan o'quvchi o'zlari uchun ajratilgan matnlarni ifodali o'qiydi.

2- topshiriq. O'quvchilar o`zlari uchun ajratilgan ma'lumotlarni izohlaydilar.

A`lochilar: Ertakda qiziq voqealar bo'ladi, yer teskari aylanib hayvonlarni yeydigan bo'ri ularni davolaydigan tabibga aylanadi. Bo'rining tabib bo'lsa ham, yirtqichligini tashlamadi:

Ana qarang

Tish qayrab

O'tirar shum shifokor.

Yo'lga boqar jovdirab,

Tezroq kelsa deb bemor.

**Ilg`orlar:**Bo'ri faqat yirtqich emas,u bilimsiz tabibdir. U quyonning biqini og`riyotgan bo`lsa ham biqini qolib chap ko'zini tekshiradi. Oshqozon og'rig'ini tumov deydi.

Bo'ri yaqin o'tirdi,

Biqin qolib tekshirdi

Quyonning chap ko'zini.

Kechikamiz dingquloq,

Ko'rmasak tez chora gar

Oshqozoning sal chatoq

Buni "tumov" deyдилar...

**Bilag`onlar:** Bo'ri tabiblikni qornini to`yg`izish uchun qiladi. Bilimsizligi uchun ham to'ng'izning kasalini davolash uchun go'shtini kesish lozimligini aytadi:

Tomoq og'riq boshlanar

O'ng oyoqning payidan

Kesib olsak soz bo'lar

Go'shtlikkina joyidan.

3-topshiriq. *Lug'at ustida ishlash.*

Har bir guruh o'zi uchun ajratilgan parchadagi tushunarsiz so'zlar lug'atini tuzadi. Darslikda berilgan lug'atdan foydalanib, ma'nosini aniqlaydi.

A`lochilar: ters-teskari, chap;

Yirtqich-vahshiy;

Bemor-kasal, betob.

Ilg`orlar: inim-ukam;

Gar-agar;

muolaja qilamiz-davolaymiz.

Bilag`onlar: pay-elastik to'qima;

rostlab qoldi juftagin-qochib qoldi.

4-topshiriq. O`zingizga ajratilgan parchadagi o'xshatish, jonlantirish va ko'p ma'noli so'zlarni toping.

A`lochilar: dingquloq-ko'chma ma'noda ishlatilgan.

Ilg`orlar: rostlab qoldi juftagin- ko'chma ma'noda ishlatilgan.

5-topshiriq.

O`zingizga ajratilgan parchalar asosida savollar tuzing.

A`lochilar: Bo'ri kim qilib saylandi?

Ochko`z shifokor nimalarni o'ylab o'tiribdi?

Ilg`orlar: Bechora quyon tabib oldiga qanday kirib keldi?

Bilimsiz shifokor bo'ri unga qanday tashxis qo'ydi?

Bilimsiz shifokor quyonga qanday davo qo'llamoqchi bo'ldi?

Bilag`onlar: Bemor to'ng'izcha bo'rining oldiga qanday holatda keldi?

Nodon shifokor bo'ri to'ng'izcha kasalining sababini nima deb ko'rsatdi?

Nima uchun to'ng'izcha qochib ketdi?

6- topshiriq. O`zingiz uchun ajratilgan bo'limga mos sarlavha toping.

A`lochilar: Bilimsiz shifokor.

**Ilg`orlar:** Og`rib qolgan quyoncha.

**Bilag`onlar:** Qochiq qolgan to`ng`izcha

IV. Yangi mavzunil mustahkamlash.

Darslikda berilgan mustahkamlash uchun savollar orqali o'quvchilarning egallagan bilimlari mustahkamlanadi.

-Quyon bilan to'ng'izchalar nima uchun qochib qolishdi?

-Bo'rining huzuriga kimlar davo istab kelishdi?

- Ochko`z bo'ri nima maqsadda tabib bo'ldi?
- Sizningcha tabiblar qanday bo'lishi mumkin?
- Kim kelajakda shifokor bo'lmoqchi?
- Yaxshi shifokor bo'lish uchun nima qilish kerak?
- Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

V. Darsni yakunlash va darsda faol qatnashgan o`quvchilarni baholab, rag`batlantirish.

VI. Uyga vazifa: Anvar Obidjonning “Bo'rining tabib bo'lganligi haqida ertak” asarini ifodali o'qish va mazmuniga mos rasm chizish.

G.A.Isoqova
Jizzax viloyat xalq ta`limi xodimlarini
qayta tayyorlash va malakasini
oshirish instituti katta o`qituvchisi